

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING O'RNI

Bog'bekova Sevara Navrozbek qizi

Xorazm viloyati Urganch tumani 39- sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Arapova Xalida Kuzibayena

Xorazm viloyati Urganch tumani 48- sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabi psixologi

Asmatova Shaxnoza Ganjaboyevna

Xorazm viloyati Urganch tumani 5-sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Sharipova Dilafriz Botir qizi

Xorazm viloyati Urganch tumani 17-sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida maktab amaliyotchi psixologining o'rni va ahamiyati yoritiladi. O'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va individual psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularga mos kasb tanlashga ko'maklashish, kasbiy ongini shakllantirish hamda to'g'ri qaror qabul qilish jarayonida psixologik yondashuvlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, kasb tanlashda psixolog, o'qituvchi va ota-onalar hamkorligining zarurligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, amaliyotchi psixolog, kasbiy qiziqish, qobiliyat, o'quvchi shaxsi, kasbiy maslahat, psixologik diagnostika.

KIRISH

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda kasb tanlash masalasi shaxsning kelajakdagi hayoti, ijtimoiy o'rni va o'zini namoyon etish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli maktab davridayoq o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari va moyilliklarini aniqlash, ularga ongli tanlov qilishda yordam berish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda maktab amaliyotchi psixologining roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotchi psixolog o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini o'rganish orqali ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, temperament va xarakter jihatlarini aniqlaydi. Psixologik diagnostika natijalari asosida o'quvchilarga mos kasblar haqida tavsiyalar beriladi. Bu esa o'quvchining o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashiga, kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga xizmat qiladi.

Kasbga yo‘naltirish jarayonida psixolog o‘quvchilar bilan individual va guruh shaklida ishlaydi. Suhbat, test, kuzatuv va trening mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarning kasbiy dunyoqarashi kengaytiriladi. Ular turli kasblar, mehnat bozori talablari, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, o‘quvchilarda mas’uliyat, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z oldiga maqsad qo‘yish kabi shaxsiy sifatlar shakllantiriladi.

Maktab amaliyotchi psixologining muhim vazifalaridan yana biri o‘qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir. O‘quvchining qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagoglar va ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega. Psixolog ular bilan maslahatlashuvlar o‘tkazib, o‘quvchiga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, kasb tanlash jarayonida uchraydigan psixologik qiyinchiliklar — ikkilanish, ishonchsizlik, tashqi bosim ta’siri kabi holatlarni bartaraf etishda ham psixolog muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, ijobiy motivatsiya berish, real maqsad qo‘yishga yo‘naltirish orqali ularning kasbiy o‘zini anglash jarayoni qo‘llab-quvvatlanadi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda maktab amaliyotchi psixologining o‘rni nihoyatda muhimdir. Psixolog tomonidan olib boriladigan tizimli ishlar o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga mos kasb tanlashiga, kelajak hayotida o‘z o‘rnini topishiga hamda jamiyatda faol shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Ta’limda iqtidorli bolalarning rivojlanishini maktab psixologlari orqali nazorat qiladi, iste’dodli deb topilgan o‘quvchi-yoshlarning hududiy bankini yaratadi. Ularning ijtimoiyoiilaviy muhiti haqida ma’lumotlar yig‘ishni tashkil qiladi, intellekt ko‘rsatkichlarini, kasbhunarga moyilliklarini, qiziqishlarini va ko‘nikmalarini hisobga oladi, ehtiyojga qarab tegishli metodik, psixologik, tibbiy yordam usullarini qo‘llaydi. Maktablar va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida bolalar va yoshlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda, kasb-hunarga yo‘naltiruvchi tadbirlarning o‘tkazilishida metodik va amaliy yordam beradi, qilingan ishlar natijalarini tahlil qiladi va umumlashtiradi. O‘z hududi doirasida mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojni Mehnat vazirligining bo‘linmasi orqali oladi, o‘rganadi va zarur bo‘lgan kasb-hunarlar haqida maktablardagi kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassislar bilan maxsus kechalar, suhbat va ko‘rik-tanlovlar, turli musobaqalar uyushtirishda yordam ko‘rsatadi

Bugungi kunda kasb-hunarga yo‘naltirish sohasida mavjud bo‘lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, xususan, kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi kasbiy targ‘ibot va tashviqotni o‘z ichiga olgan kasbiy ma’rifat (kasbiy axborot); u yoki bu soha, kasbga bo‘lgan shaxs qiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy tashxisi, kasb tanlashda mutaxassislar tomonidan individual, guruhviy yordam ko‘rsatishga qaratilgan

kasbiy maslahatlar, ko‘proq muvofaqiyatga erishishi mumkin bo‘lgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-kasbiy moslashuv, tanlangan kasbni o‘rganish jarayonida burch, mas’uliyat, kasbiy or-nomus hislarini o‘quvchilarda shakllantirishga qaratilgan. Undan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klasifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to‘g‘risidagi axborotlarni berishdan iborat bo‘lib, ular asosida o‘quvchi o‘zini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur bo‘lgan kasbni tanlaydi.

Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma’rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarga ta’lim berish ularni o‘qitish bilan bog‘liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o‘ylantirib qo‘yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muxtoj bo‘lib boraveradi. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o‘ta muhim bosqichi bo‘lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog‘liq emas, u ma’lum yoshga kelib o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo‘llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta’minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to‘siqlarni oldini olgan holda o‘quvchi yoshlarni ongli ravishda kasbga yo‘llash imkoniga ega bo‘lamiz.

O‘quvchilarning kelajak hayotlarida muvaffaqiyatli va qoniqarli kasbga ega bo‘lishlari, jamiyatning barqaror va taraqqiy topishiga hissa qo‘shadigan avlodlarni tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega. Kasb-hunar tanlash — bu o‘quvchilarning hayotida hal qiluvchi bir qarordir, bu qarorda psixologik omillarning ta’siri beqiyosdir.

Har bir o‘quvchi shaxsiy qiziqishlarga, qobiliyatlariga va qiymatlariga ega, bu esa ularning kasbiy tanlovlarini ancha ta’sirlaydi. Psixologik yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zlarini yaxshi tushunishlariga va o‘z qobiliyatlarini yanada samarali bajarishga imkon beradigan kasbni topishlariga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, uning samaradorligi o‘quvchi individualligining, uning atrofidagi muhitning va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning psixologik dinamikalariga bog‘liq. Pedagoglar, psixologlar va otaonalar tomonidan birgalikda yuqori saviyadagi kasb-hunarga yo‘naltirishi zarur.

Yoshlarning kasbiy qarorlarini optimallashtirishda psixologik faollashtirishning muhimligi tasdiqlangan. Psixologlar o'quvchilarga o'z qiziqishlarini aniqlash, karyera murojaatlarida ularning shaxsiy qiymatlari bilan mos keladigan ma'lumotlar topishda yordam berishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bugungi kunda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda asosiy e'tibor ularning mustaqil fikr yuritishiga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg'ulot turi mustaqil ta'lim olishlariga qaratilmoqda. Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi ham o'quvchining dars va darsdan tashqari faoliyati va faolligini ta'minlashga yo'naltirilgan shart - sharoit yaratish, mustaqil fikrlash va kasbiy mas'uliyatni his qilishga qaratilgan ijodiy jarayonni tashkil etishdan iborat. Bizningcha, mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ular tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil faoliyatini bir nechta afzalliklari mavjud.

Bugungi kundagi eng dolzarb g'oyalar va tendensiyalar bilan tanishish, shaxsiy ta'lim dasturlar va undagi qiziqarli, muammoli mavzular, dolzarb bilimlar, yuqori motivatsiya, vaqtni tejash, samaradorlik, muloqot doirasini kengaytirish, eng yaxshi professor o'qituvchilardan o'rganish, bepul ta'lim olish.

Shunday ekan, bugungi kunda ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotning talablariga muvofiq, mustaqil ta'lim asosida o'quvchilarning erkin ijodiy tafakkuri va shunga qaratilgan pedagogik g'oyalar samaradorligini kafolatlovchi ta'lim mazmunini takomillashtirishga erishish eng asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishga motivatsiyani uyg'otish, maqsadni to'g'ri qo'yish, mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etuvchi ta'lim resurslari ro'yxatini tuzish, kundalik ish tartibini rejalashtirish, ayni kunda ta'limdagi taraqqiyot, rivojlanish, yangiliklarni kuzatib borish kabilarni kiritish mumkin.

Bizga ma'lumki, zamonaviy globallashuv sharoitida har kuni millionlab voqealar yuz bermoqda, ulkan miqdordagi yangi ma'lumotlar paydo bo'lib, eskisi dolzarb bo'lmay qolmoqda, shular tufayli turli sohalardagi tendensiyalar o'zgarib bermoqda.

Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B.Shouning fikri bo'yicha kasb - mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. YE.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha "Kasb jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritib, YE.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Yana bir ta'rifni keltiramiz. "jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat

ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natija mas'uliyatlarni yetkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi" nisbatan tor ta'rifni esa V.G.Makushin keltiradi, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mavjud ta'riflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Mashhur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir - deb hisoblangan. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab, ko'p darajali va ko'rinishli, tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'liqni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi.

Kasbga yo'naltirish ishiga kompleks yondashish o'quvchilarni har tomonlama o'rganishni ham ko'zda tutadi. Bu tadbir o'quvchilar bilan ishlashning to'g'ri shakllari va metodlarini qidirib topishga yordam beradi. O'rganishni metodlar bilan o'tkazish, eng muhimi - bu ishni muntazam ravishda va sobitqadamlik bilan amalga oshirish kerak. Kuzatish - o'quvchilarni o'rganishning keng ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni ko'zlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Mehnat ta'limi darslari kuzatish o'tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Diagnostik suhbatlar o'tkazish ham qo'llaniladi. Bunday suhbatlar yakka tartibda yoki jamoa tarzida o'tkazilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib qaytadigan bo'lsak: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish psixologiyasi kompleks muhit va shaxsiyatlararo o'zaro ta'sirni taqozo etadi. Shaxsiyat, qiziqishlar va ijtimoiy ta'sirlardan vujudga keladigan bu holatning murakkabligini anglab yetish, pedagogik amaliyotda samarali usullarni tatbiq qilishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Super, D. E. (1990). A life-span, life-space approach to career development. In D. Brown & L. Brooks (Eds.), Career choice and development (pp. 197–261). San Francisco: Jossey-Bass.
2. Holland, J. L. (1997). Making vocational choices: A theory of vocational personalities and work environments (3rd ed.). Odessa, FL: Psychological Assessment Resources.
3. Savickas, M. L. (2002). Career construction: A developmental theory of vocational behavior. In D. Brown (Ed.), Career choice and development (4th ed., pp. 149–205). San Francisco: Jossey-Bass.
4. Patton, W., & McMahon, M. (2014).
5. Ziyo.net